

## DORINING OZI DAVO, ORTIG'I ZAHAR

**Shukurova Gulsara Dushabekovna**

Tel: +99891-192-34-52

*Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy amaliy markaz  
Toshkent viloyat filiali sud-kimyo bo'limi laboranti*

“Dorining ozi davo, ortig'i zahar” degan hikmatli ibora dori-darmonlarni faqat belgilangan me'yor va shifokor ko'rsatmalariga muvofiq qo'llash zarurligini eslatadi. Chunki dori o'z vaqtida, to'g'ri dozada qabul qilingandagina foyda keltiradi, aks holda esa salomatlikka jiddiy xavf tug'dirishi, hatto inson hayoti uchun xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Dori vositalari har bir inson organizmiga turlicha ta'sir qiladi, shuning uchun dori ishlatishdan oldin albatta shifokor bilan maslahatlashish kerak. Masalan, oddiygina diklofenak og'riqni kamaytirishda samarali bo'lsa-da, oshqozon yarasi bilan og'rikan bemorlarga qat'iy tavsia etilmaydi. Shuningdek, nitroglitserin arterial bosimi juda past bo'lgan bemorlarda hushdan ketish va hayot uchun xavf tug'dirishi mumkin. Penitsillin kabi antibiotiklarga allergiyasi bor odamlar esa nafaqat penitsillin, balki unga o'xshash boshqa antibiotiklarni ham qabul qilmasligi lozim.

Shu sababli har bir shifokor dori-darmon belgilashdan oldin bemorning sog'lig'idagi barcha nozik jihatlarni, mavjud kasalliklarni, allergik reaksiyalarni, boshqa dorilarni qabul qilayotganini sinchiklab o'rganib, qo'llash mumkin bo'lmagan holatlarni istisno qiladi. Chunki qo'llash mumkin bo'lmagan holatlar — bu muayyan dori vositasidan foydalanish mumkin bo'lmagan vaziyatlar yoki kasalliklardir. Ushbu yondashuv nafaqat individual sog'liqni himoya qiladi, balki dori vositalarining ortiqcha va nojo'ya ta'sirlarini oldini olishga yordam beradi. Zero, shifokorning asosiy vazifasi – dori davo bo'lishi uchun shart-sharoit yaratish, aksincha, zarar yetkazilishining oldini olishdir.

Dori-darmonlarni me'yordan ortiq qabul qilish nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Nojo'ya ta'sir — bu preparat oddiy dozalarda qo'llanganda yuzaga keladigan, organizm uchun kutilmagan va zararli bo'lgan reaksiyadir. Bunday yon ta'sirlar dori vositalarining yo'riqnomasida batafsil ko'rsatiladi. Yon ta'sirlar dori qabul qilish jarayonida yoki ba'zan davo tugaganidan keyin ham yuzaga chiqishi mumkin. Bemorlar bunga tayyor bo'lishi, shifokor yoki farmatsevt bilan bunday belgilar yuzaga kelgan taqdirda darhol maslahatlashishi lozim. Afsuski, ko'plab hollarda odamlar dorining zarari haqidagi ogohlantirishlarni yetarlicha o'qib chiqmaydi yoki ularga befarq qaraydi, bu esa salbiy oqibatlarni yuzaga keltiradi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ekspertlari dori vositalarining salbiy ta‘sir ko‘rsatishiga olib keladigan asosiy sabablarni quyidagicha sanab o‘tadi:

- Shifokor ko‘rsatmalariga amal qilmaslik;
- Retsept talab qilinadigan dorilar bilan o‘z-o‘zini davolashga urinib ko‘rish;
- Dorini belgilanganidan ortiq dozada yoki belgilangan muddatdan uzoq davom ettirib qabul qilish;
- Dorilarni bir-biri yoki ba‘zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan noto‘g‘ri qo‘llash natijasida yuzaga keladigan o‘zaro ta‘sirlar.

Shuning uchun dorilardan oqilona foydalanishda quyidagi oddiy, ammo juda muhim qoidalar qat‘iy rioya qilish zarur:

- **Shifokor tavsiyasi shart** – hech qachon o‘zboshimchalik bilan dori ichmang, doimo shifokor yoki malakali mutaxassis bilan maslahatlashib qabul qiling;
- **Dozani oshirmang** – belgilangan miqdordan oshiqcha qabul qilish dori foydasini oshirmaydi, aksincha zarar keltiradi;
- **Yon ta‘sirlarga e‘tiborli bo‘ling** – o‘zgarishlarni sezsangiz, darhol shifokorga murojaat qiling;
- **Dorilarni bolalardan uzoqda saqlang** – dorilarni maxsus yopiladigan, bolalarning qo‘li yetib bormaydigan joylarda saqlash, bolalarni ulardan ehtiyot qilish eng muhim chora hisoblanadi.

Hayotimizda achchiq saboq bo‘ladigan holatlar ham uchrab turadi. Jumladan, 2024-yilda Toshkent viloyati Zangiota tumanida sodir bo‘lgan voqea bunga misol bo‘la oladi. Tumanda yashovchi ikki yoshli qizaloq — A.R. ismli qizcha buvisi ichib yurgan “Trental” tabletkasini katta miqdorda ichib yuborgan. Natijada kuchli zaharlanish alomatlari paydo bo‘lib, uni kasalxonaga ketayotgan vaqtda vafot etgan. Sud - kimyo ekspertizasi uning o‘limiga aynan doridan zaharlanish sabab bo‘lganini tasdiqladi. Bu kabi fojiali voqealar, afsuski, nafaqat bizning mamlakatimizda, balki dunyoning ko‘plab davlatlarida ro‘y berib turadi. Shu sababli dori vositalari bilan ishlashda beparvolik, e‘tiborsizlik, tajribasizlik qimmatga tushishini har doim yodda tutishimiz kerak.

Bunday fojiali hodisalar hech qachon takrorlanmasligi uchun ota-onalar, qarindoshlar bolalarini doimo nazoratda ushlab turishi, uy sharoitida dorilarni yosh bolalar qiziqib ochib ko‘ra olmaydigan, yetib ololmaydigan xavfsiz joylarda saqlashi shart.

Xulosa qilib aytganda, “Dorining ozi davo, ortig‘i zahar” iborasi bejizga aytilmagan. Bu hikmat dori-darmonlardan foydalanishda eng asosiy qoidani eslatib turadi: dori insonni davolash uchun yaratilgan, lekin uni beparvo, me‘yorsiz yoki o‘zboshimchalik bilan ishlatish inson hayotini xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Dorilarni mutaxassis ko‘rsatmasiga muvofiq qabul qilish, belgilangan dozaga qat‘iy rioya etish, har qanday nojo‘ya belgilarni befarq qoldirmasdan darhol shifokorga murojaat qilish –

bu faqat bemorning o'zini emas, balki oilasi, yaqinlari va jamiyatni ham ortiqcha xavf-xatardan himoya qiladi.

Shuningdek, har birimiz farzandlarimiz va oila a'zolarimiz xavfsizligini ta'minlash uchun dorilarni bolalar yetolmaydigan va ocholmaydigan joylarda saqlashimiz, ularni dori vositalarining xavfi haqida doim ogohlantirishimiz shart. Esda tutaylik, dorilar mo'jiza bo'lishi ham, fojia sababi bo'lishi ham mumkin – bu esa faqat bizning hushyorligimiz, bilimimiz va mas'uliyatimizga bog'liq.

Shunday ekan, hayotingizda va yaqinlaringizning sog'lig'ida ortiqcha xavf tug'dirmaslik uchun dorilarni ongli, mas'uliyatli va shifokor ko'rsatmasiga rioya qilgan holda qabul qiling. Shunda dori chinakam davo, hayot sifatining asosi va sog'lom kelajakning garovi bo'lib xizmat qiladi.

### **Adabiyotlar:**

1. “Toksikologok kimyo” L.T.Ikromov, T.Mirxaitov, M.A.Tojiyev, Z.A.Yuldashev, Toshkent “Extremum PRESS” 2010.
2. Sud-tibbiy ekspertiza va tekshiruvlarini o'tkazish standartlari.
3. “Vidal” O'zbekiston Respublikasi davlat farmokopeyasi.
- 4.S.S.Azizova “Farmokologiya” Учебник. – Ташкент. Издательство медицинской литературы им. Абу Али Ибн Сино, 2002 - 496ст. – для студентов высших медицинских учебных заведений.